



TASDIQLAYMAN»

Navoiy davlat pedagogika
instituti prorektori

G'.Yodgorov

2024-yil

**Navoiy davlat pedagogika instituti “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng
huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha maslahat
kengashi” tarkibini tuzish va ish rejasini tasdiqlash
bo’yicha o’tkazilgan yig’ilish
BAYONI**

2024-yil 2-fevral

Navoiy shahri

Raislik qiluvchi:

G'. Yodgorov-O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Ishtirok etganlar:

Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor X.Qurbonov, Xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi N.Tursunova, fakultet dekanlari, institutda belgilangan tavsiyalar asosida maslahat – kengashi tarkibi

KUN TARTIBI:

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha maslahat kengashi” tarkibini tuzish va ish rejasini tasdiqlash to’g’risida.

(G' Yodgorov, X. Qurbonov, N. Tursunova fakultet dekanlari, institutda belgilangan tavsiyalar asosida maslahat – kengashi tarkibi)

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi O’RQ 562-son Qonunining 13-moddasida Davlat organlarining rahbarlari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha tadbirkorlik subyektlarining, shuningdek fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari ishtirokida maslahat-kengash organlarini tuzish hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining

2024-yil 16-yanvar 2/15-4-sonli xati ijrosi yuzasidan aynan Navoiy davlat pedagogika instituti “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha maslahat kengashi” tarkibi tuzish va 2024-yilga mo’ljallangan ish rejasini tasdiqlash yuzasidan yig’ilish o’tkazildi. Yig’ilishda O’quv ishlari bo’yicha prorektor G'. Yodgorov raislik qilib, ushbu jamoatchilik maslahat kengashining asosiy vazifalari to’g’risida to’xtalib o’tdi.

Shundan so’ng yig’ilish davomida Yoshlar masalalari va ma’naviy - ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor X.Qurbonov so’zga chiqib, mamlakatimiz tarixining yangi

sahifalarida ayol zotiga ko'rsatilayotgan bugungi yuksak e'tibor namunalari zarhal harflarda bitiladi. Chunki ayolga sen go'zalsan, muqaddassan degan badiiy munosabat bugun ayolni nima qiynayotgani, jismidagi og'riq nimadan, oilasida ahvoli qanday, bolalarini qanday tarbiyalayapti degan individual yondashuv bilan uyg'unlashgan. Ayollarning muammolarini hal etish borasidagi islohotlar manzilli, egali va aynan shaxsga yo'naltirilayotgani bilan yangicha mazmun kasb etayapti. Xotin-qizlar bilan ishlashdagi bugungi yondashuvda ayolning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ustuvorlik ahamiyatga ega. Chunki savodli, haq-huquqini tanigan, faol ayolning hayotda o'z o'rnini topishi osonroq kechadi. Albatta, bu borada muammolar yo'q emas, biroq salmoqli natijaga erishilayotganini e'tirof etish joiz. Zero, xotin-qizlar hayotidagi eng kichik o'zgarishdan ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega yangilanishlargacha Prezidentimizning ayollar masalasiga o'ta jonkuyarlik bilan yondashayotganini ko'rish mumkin. So'nggi yillardagi izchil ijtimoiy-siyosiy islohotlar va ayollar masalasiga yangicha munosabatning yuqori bosqichga ko'tarilishi natijasida xotin-qizlarning qator muammolariga yechim topila boshladi.

Navbatdagi so'z: Xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi N.Tursunova tomonidan shunday fikrlar qayd etildi: Xususan, o'tgan davrda yuzlab qizlarning oliy ma'lumot olishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ehtiyojmand minglab ayollarga uy-joylar berildi. Davlat qo'llab-quvvatlovi tufayli tadbirkor ayollar safi kengaydi. Umuman barcha jabhada ayollarning o'zni va roli oshyapti. Nozik xilqat egalarining muammosini hal etish masalasini davlat va nodavlat tashkilotlar oldiga qo'ya bilish pozitsiyasi kuchayganligi, o'tgan davr mobaynida ta'lim muassasasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi faoliyati yo'lga qo'yilgani, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning ta'minlanishi, gender bo'yicha statistik ma'lumotlar va axborotlarning mavjudligi, muntazam ravishda ularni yig'ish hamda tahlil qilish yo'lga qo'yilganligi haqida alohida fikrlar bildirildi.

2024-yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasida davlat dasturlari, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqishdagi ishtiroki kengaytirish choralari ko'rish, institut hamda tizimda mehnat bozorida xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ilgari surish, ishga joylashtirish uchun o'qitish hamda sharoitlar yaratish yuzasidan xususiy sektor bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, uni yanada rivojlantirish, institut hamda tizimda xotin-qizlar va erkaklar kasbiy va oilaviy majburiyatlarni birga bajarishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar, shu jumladan hamonalarga, ham otalarga bola parvarishi uchun ta'til berish imkoniyatidan xodimlarning foydalanishi yuzasidan targ'ibot ishlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar bildirildi.

Yig'ilish raisi **G'. Yodgorov**- Kun tartibidagi masala yuzasidan maslahat Kengashi tarkibi raisi Yoshlar masalalari va ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor X.Qurbonovning nomzodi tavsiya etildi. Maslahat kengashi tarkibi a'zolari nomzodlari Xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi N.Tursunova hamda G'.Yodgorov, N.Bekmurodov, A.Zokirov, N.Safarova, Sh.Nosirova, X.Xasanova, G.Ravshanovalar nomzodlari yig'ilish a'zolari tomonidan tavsiya etildi.

Ko'rilgan masalalar va takliflardan kelib chiqib,

QAROR QILINDI:

1. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi" tarkibini tuzish va ish rejasini tasdiqlash bo'yicha o'tkazilgan yig'ilish ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi" raisi Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor X.Qurbonov hamda jami 9 kishidan iborat tarkibi tasdiqlansin.

3. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi"ning 2024-yilga mo'ljallangan 16 banddan iborat ish rejasini tasdiqlansin.

4. Ushbu bayon ijrosi nazorati Xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi N.Tursunova o'z zimmamda yuklatilsin.

Bayonlashtirdi:



G.Ravshanova